



«QOBUSNOMA»DA YOSHLAR TARBIYASI MASALASI.

Nilufar Jahongir qizi Uzoqova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiya fakulteti talabasi

+998 50 711 07 13

uzoqovanilufar2007@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qobusnoma asarida yoshlar tarbiyasi masalasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Asar muallifi Kaykovus tomonidan pand-nasihat janrida yaratilgan bo'lib, unda komil insonni shakllantirishning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy mezonlari bayon etiladi. Tadqiqotda asardagi farzand tarbiyasi, ilm olish, kasb-hunar egallash, nutq madaniyati, do'st tanlash, ota-onaga hurmat, sabr-qanoat va halollik kabi masalalar tizimli ravishda yoritiladi.

Tahlil so'zlar: *pand-nasihat janri, axloqiy konsepsiya, komil inson g'oyasi, nutq ma'daniyati, oilaviy tarbiya modeli, axloqiy me'yorlar tizimi, tarbiyaviy g'oyalar, ma'rifatparvarlik g'oyasi.*

Annotation. This article provides a scientific and theoretical analysis of the issue of youth education in the work Qobusnoma. The book was written by Kaykovus in the didactic genre of advice and moral instruction, and it outlines the moral, spiritual, and social principles for shaping a well-rounded and virtuous individual. The study systematically examines such themes in the work as child upbringing, the pursuit of knowledge, acquiring a profession or craft, speech culture, choosing friends wisely, respect for parents, patience and contentment, and honesty. These issues are analyzed as integral components of a comprehensive educational system presented in the text.



Key words: *Didactic (advisory) genre, Moral (ethical) concept, The idea of the perfect (ideal) person, Speech culture, Family education model, System of moral norms, Educational ideas, Enlightenment idea.*

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема воспитания молодежи в произведении Qobusnoma в научно-теоретическом аспекте. Автор произведения — Kaykovus — создал его в жанре назидательной литературы, где излагаются нравственные, духовные и социальные принципы формирования гармонично развитой личности. В исследовании системно анализируются такие вопросы, как воспитание детей, стремление к знаниям, овладение профессией и ремеслом, культура речи, выбор друзей, уважение к родителям, терпение, довольство и честность. Данные аспекты рассматриваются как важные составляющие целостной воспитательной концепции, представленной в произведении.

Ключевые слово: *Назидательный жанр, Нравственная (этическая) концепция, Идея совершенного (идеального) человека, Культура речи, Модель семейного воспитания, Система нравственных норм, Воспитательные идеи, Просветительская идея.*

Sharq mumtoz adabiy merosida yosh avlod tarbiyasi masalasi muhim o‘rin egallaydi. Ana shunday didaktik ruhdagi asarlardan biri — Qobusnoma bo‘lib, u o‘rta asr Sharq pedagogik tafakkurining yorqin namunasi hisoblanadi. Asar muallifi Kaykovus o‘z farzandiga pand-nasihah shaklida yozgan ushbu asarda komil insonni shakllantirishning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy me’zonlarini bayon etadi.

Kaykovus asarning 4-bobida ne‘matlarga shukr qilish masalasini alohida tarbiyaviy tamoyil sifatida yoritadi. Bu bobda shukr tushunchasi faqat diniy ibora sifatida emas, balki axloqiy va ijtimoiy fazilat darajasida talqin qilinadi. Muallif shukrni insonning ichki madaniyati va komillik darajasini belgilovchi mezon sifatida ko‘rsatadi. Uning talqinida shukr — ne‘matni tan olish, uni qadrlash va uni bergan



Zotni unutmastir. Bu yerda shukr e'tiqod bilan bog'langan axloqiy ong ko'rinishida namoyon bo'ladi.(T-2024,4-bob,25-bet).

Kaykovus asarda "Sharob ichmak zikri" bobida o'ta realistik va hayotiy yondashuvni namoyon etadi. Bu bob didaktik xarakterga ega bo'lib, unda muallif mutlaq taqiqlan ko'ra me'yor, aql va nazorat tamoyillarini ustuvor qo'yadi.

Kaykovus sharob ichishni mutlaqo inkor etmaydi, ammo uni haddan oshirmastirni qat'iy uqtiradi. Uning fikricha, inson o'z aqlini yo'qotadigan darajada mast bo'lishi — eng katta xatodir. Demak, asosiy g'oya — nafsni boshqarish va o'zini nazorat qila bilish.Muallif uchun eng muhim narsa — insonning sha'ni va obro'sidir. Mastlik natijasida aytilgan noo'rin so'z yoki qilingan xatti-harakat insonning ijtimoiy mavqeiga putur yetkazadi. Shuning uchun sharob ichishdan ko'ra, aqlni saqlash ustuvor qo'yiladi.(T-2024,11-bob,67-bet).

Kaykovus asarida farzand tarbiyasi alohida bob sifatida yoritilgan bo'lib, bu bob ota-onaning mas'uliyati, tarbiyaviy strategiya va ma'naviy yetakchilikni o'z ichiga oladi. 27-bobning mohiyati yosh avlodni komil inson sifatida shakllantirishga qaratilgan.Kaykovus farzand tarbiyasini shunchaki odob-axloq qoidalarini o'rgatishdan iborat deb bilmaydi. U tarbiyani shaxs kamoloti, axloqiy ong va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish vositasi sifatida ko'rsatadi. Bobda farzandning ilm olish, odobli bo'lish va mustaqil qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.Bobda ota-onaning tarbiyadagi roli markaziy o'rin tutadi. Kaykovus farzandga faqat bilim bermastir, balki:sabr bilan tarbiya berish,,ularni kuzatib, xatolarini to'g'rilash,,axloqiy namunalari ko'rsatish,,me'yor va cheklovlarni belgilash zarurligini ta'kidlaydi. Tarbiya jarayoni ota-onaning shaxsiy fazilatlari va ma'naviy yetukligiga bog'liq ekanligi alohida qayd etiladi.(T-2024,27-bob,113-bet)

Qobusnoma" kitobining "O'n uchinchi bob" (13-bob)i keltirilgan bo'lib, unda hazil-mazah, shatranj va nard o'yinlari odobi bayon qilingan.



Mazkur bobning tahlili quyidagicha: Bob, asosan, odob-axloq qoidalariga rioya etish, ayniqsa, bo'sh vaqtni o'tkazishdagi xatti-harakatlar haqida. Hazil-mazah odobi: Muallif (Kaykovus) ko'p hazil qilishdan, behayo so'zlardan va birovlarining sha'niga tegishdan saqlanishni maslahat beradi. Chunki ko'p hazil fitna va fasodga olib kelishi mumkinligi ta'kidlanadi. O'yinlar odobi: Shatranj va nard o'ynashga ruxsat beriladi, lekin qimorbozlikka aylanmasligi uchun garov bog'lab o'ynamaslik shart qilinadi. O'yinda adob saqlash, tortishuv qilmaslik uqtiriladi. Bobning asosiy maqsadi – insonni har qanday holatda, hatto o'yin-kulgu paytida ham o'zini tuta bilishga, odob doirasidan chiqmaslikka chaqirishdir.

Kitob, asosan, axloq, odob, hayotiy ko'nikmalar va insoniy fazilatlar haqidagi pand-nasihatlardan iborat. Tarkibi: U turli boblarga bo'lingan bo'lib, har bir bob alohida mavzuni qamrab oladi. Diniy va ma'naviy asoslar: Xudo va payg'ambarlarni tanish, shukronalik kabi mavzular. Oilaviy munosabatlar: Ota-onaga hurmat va ularning haqlari. Shaxsiy rivojlanish: Hunar o'rganish, notiqlik san'ati, qarilik va yigitlik sifati. Ijtimoiy odoblar: Taomlanish tartibi, mehmon kutish, o'yinlar (shatranj, nard) odobi, ishq va uning odatlari.

Xulosa: "Qobusnoma" o'z davrining qomusiy asarlaridan biri bo'lib, insonning jamiyatda munosib o'rin egallashi, axloqli va bilimdon bo'lishi uchun zarur bo'lgan universal ko'rsatmalar va tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu asar o'quvchini har tomonlama yetuk shaxs bo'lishga undaydi. Qobusnomada tarbiya, shukr, me'yori, aql va odob masalalari bir-biriga bog'langan holda tizimli tarzda yoritilgan. Kaykovus farzandga faqat bilim berish bilan cheklanmay, uni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantirishga urg'u beradi. Asarda pedagogik g'oyalar amaliy hayotiy misollar bilan mustahkamlanadi, bu esa asarni nafaqat adabiy, balki pedagogik manba sifatida ham qadrlidir.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qobusnoma — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2024.
2. Kaykovus. Qobusnoma (turli nashrlar va tarjimalar).
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2018.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Toshkent: Fan, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: Fan, 2017.